O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

13.00.07 – «Ta’limda menejment»
ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

TOSHKENT – 2026
ANNOTATSIYA

“Ta’limda menejment” fani O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni asosida psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi ta’lim menejmenti ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: p.f.d., prof. B.S.Abdullayeva
p.f.n., dos. R.Isyanov

Taqrizchilar: p.f.d., prof. Sh.Abdullayeva
p.f.d. prof. N.Djamilova

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

“Ta’limda menejment” kursi O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, ta’lim olganlikni tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, menejmentning umumiy metodlari, turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

“Ta’limda menejment” kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini

koʻrsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan Oʻzbekiston respublikasi mustaqilligi e'lon qilinganidan keyingi davrlarda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni aks ettiradi.

"Ta'limda menejment" kursi ta'lim muassasasi menejmentining oʻziga xosliklari, boshqaruv funksiyalari, tamoyillari, metodlari, ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi, ta'lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish, ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish hamda strategik menejmentga oid masalalarni oʻzida qamrab olgan.

Dasturning maqsad va vazifalari

Dasturning maqsadi:

izlanuvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va ta'lim menejmentiga doir bilimlar bilan qurollantirish, Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablari asosida ilmiy-tadqiqotni tashkil etish koʻnikma va malakalarini rivojlantirish.

Dasturning vazifalari:

tadqiqotchilarni Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida pedagogika sohasiga doir ilmiy-tadqiqotni samarali tashkil etishga oʻrgatish;

oʻquv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, oʻquv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etishni amalga oshirish;

milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish koʻnikma va malakalarini rivojlantirish;

global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy oʻziga xosliklardagi umumiy koʻrinishlarni ochib berish, pedagogik madaniyatni shakllantirish.

Dasturni oʻzlashtirishga qoʻyiladigan talablar

"Ta'limda menejment" ixtisosligi boʻyicha tuzilgan dastur doirasida tadqiqotchilar:

ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari; ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, ta'lim muassasasi menejmentining ilmiy asoslari, oʻquv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qoʻyilgan zamonaviy talablar; ta'lim oluvchilar shaxsiy omillari, uning shakllanish taraqqiyoti; yaxlit oʻquv-tarbiya jarayonini realizatsiya va shakllantirishning asoslari va shakllari; tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari; pedagogik terminologiyani **bilishi kerak;**

milliy gʻoya va asosiy pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga asoslangan holda oʻquv-tarbiya ishlarini oʻtkazish; ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qoʻllash; ta'lim-tarbiya metodlari va vositalarni amaliyotda qoʻllash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlash; oʻquv va tarbiya jarayonida jamoadagi oʻquvchilar jamoasini samarali boshqarish; oʻquvchilar xulqi va faoliyatini ragʻbatlash; pedagogik vaziyatlarni, ta'lim va tarbiya natijalarini tahlil etish,

o‘quvchilar va o‘quvchilar jamoalarini o‘rganish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;**

psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo‘riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish; sinf va guruh rahbarining ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarini; ijodiy, erkin fikrli, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni rejalashtirish va amalga oshirish; mahalla va ota-onalar bilan amaliy ishlar; jamoaning psixologik sharoitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish **malakalariga ega bo‘lish kerak.**

“Ta’limda menejment” ixtisosligi dasturi mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari.

Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogika fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari tavsifi.

Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida

Individ va shaxs tushunchasi. Shaxs rivojlanishi. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanishi yosh davrlari.

Yaxlit pedagogik jarayon

Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi. Yaxlit pedagogik jarayonnning tarkibiy qismlari. Pedagogik jarayon qonuniyat va tamoyillari.

Ta’lim muassasasi menejmenti

Ta’lim muassasasi menejmenti haqida umumiy tushuncha. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji haqidagi Nizom. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish. Ta’lim muassasasi Ustavi rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.

Boshqaruvning nazariy asoslari

Boshqaruv tushunchasi. Boshqaruv metodlari. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish. Pedagogik tizim tavsifi.

Ta’lim muassasasi ichki boshqaruvi

Ta’lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish. Ta’lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish. Ta’lim sohasida attestatsiya.

Ta’lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish

Ta’lim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ta’lim muassasasida ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va undan foydalanish.

Ta’lim muassasadagi innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish

Innovatsion jarayon: tuzilishi, mazmun-mohiyati. Innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish. Innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishning konseptual va tashkiliy modellari.

Strategik boshqaruv va rejalashtirish

Strategiya va strategik boshqaruv to‘g‘risida tushuncha. Strategik rejalashtirish va uning bosqchilari. Strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirish.

“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari:

1. Zamonaviy jamiyatda pedagoglik kasbi va unga qo’yiladigan talablar.
2. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta`lim, ma`lumot, shakllanish, rivojlanish.
4. Pedagogikaning sohalari (tarmoqlari).
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi.
6. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari tavsifi.
7. Yagona pedagogik jarayon: mazmun va mohiyati.
8. Ta`lim va tarbiyaning o’ziga xosligi va umumiyligi.
9. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi.
10. Iqtisodiy rivojlangan davlat ta’lim tizimi.
11. Ta’lim modellari. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar.
12. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.
13. Innovatsion jarayon: tuzilishi, mazmun-mohiyati.
14. Strategiya va strategik boshqaruv to‘g‘risida tushuncha.
15. Strategik rejalashtirish va uning bosqichlari.
16. Strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirish.

17. Ta’lim muassaslarini boshqarishda tijoratlashtirish va uning ahamiyati
18. “Universitet 3,0” konsepsiyasi va uning mohiyati
19. Ta’lim muassasalarini boshqarishda xalqaro ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari
20. Strategik boshqaruvning innovatsion mohiyati va tuzilmasi
21. Ta’lim muasasalarini boshqarishda xolislik va ochiqlik prinsiplari uyg‘unligi
22. Ta’lim muassasalarini boshqarishning funksional-kognitiv imkoniyatlari
23. Ta’lim muassaslarini boshqarishning raqamli texnologiyalari
24. Ta’lim muassasalarini boshqarishning ko‘p tarmoqli infrastrukturasini shakllantirish istiqbollari
25. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.

Talabgor quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari	**Maks. ball**
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Asqarova O’.M., Hayitboyev M., Nishonov S. Pedagogika – T.: Talqin, 2008.
2. Ahmadhojaev H.T., Mirdadaev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish: – T.: Ilm Ziyo, 2004.
3. Axunova G. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammolari. – T.: «Iqtisod-moliya», 2005.
4. Burganova L.A. Teoriya upravleniya. Uchebnoye posoboiye. M.- 2019, 160 str.
5. Vasilyeva I.V. Osnov upravleniye personalom. M.- 2019, 118 str.
6. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika. – SPb.: Piter, 2001. – 276 c/
7. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T.: Fan, 2006.

8. Pedagogika. Bolshaya sovremennaya entsiklopediya. – Minsk: Sovremennoye slovo, 2005. – 720 s.